

## ORKESTRDA CHANG CHOLG'USINING MAQSADI VA VAZIFASI

Shermatov Elyor Mansurjon o'g'li

*Namangan davlat pedagogika instituti Musiqa ta'limi va san'at yo'nalishi 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola orkestr tushunchasi, uning tarixi, tarkibi va ijrochilik xususiyatlari haqida ma'lumot beradi. Orkestrning turli turlari, jumladan, simfonik, duxovoy, torli, estrada va o'zbek xalq cholg'ulari orkestrlari tahlil qilinadi. Shuningdek, orkestrning o'quv jarayonidagi ahamiyati, orkestr sinfi darslarida talab etiladigan ko'nikmalar va ular orqali o'quvchilarda rivojlantiriladigan fazilatlar batafsil yoritilgan. Maqolada dirijyorlik san'atining o'ziga xos jihatlari, dirijyorning vazifalari va orkestr ijrosini boshqarishdagi roli haqida to'liq tasavvur beriladi. Orkestr guruhlarining joylashuvi, ijro amaliyotida o'zbek xalq cholg'ularining o'рни va ularga moslab yaratilgan kompozitsiyalar haqida fikr yuritiladi. Xususan, maqolada chang cholg'usining o'ziga xosligi, uning orkestrdagi o'рни va unga bag'ishlangan yirik asarlar, jumladan, A. Otajonov, I. Hamroyev kabi kompozitorlar ijodida uchraydigan konsertlar haqida so'z boradi. Ushbu maqola orkestrga oid nazariy bilimlarni kengaytirish va o'zbek milliy cholg'ularining ijrochilik madaniyatini yuksaltirishda muhim o'rin tutadi.

**Kalit so'zlar:** Musiqa, cholg'u, chang, ijro, orkestr, san'at, kompozitsiya, dirijyor.

ORKESTR- turli cholg'u guruhlardan tuzilgan jamoa bo'lib, ko'rsatilgan tarkib uchun yaratilgan musiqa asarini ijro etadi.

Hammamiz biladigan kichik ansambllardan farqi shundagi, ularda sozandalar soni ko'p bo'lib, bir necha guruhdan tashkil topadi. Orkestr cholg'ular tarkibiy tuzilishiga ko'ra turlicha bo'linadi.

Simfonik orkestr, Duxovoy orkestr, Torli orkestr, Estrada orkestri O'zbek xalq cholg'ulari orkestri shular jumlasidandir.

Ta'kidlash lozimki, hamma xalqlarning ham o'z cholg'ularidan tuzilgan orkestr bo'lishi mumkin. Sanab o'tilgan orkestrlardan tashqari tarkibi kamaytirilgan kamer (kichik) orkestrlar ham uchrab turadi.

Uzoq davrlardan beri xalqimiz o'rtasida keng tarqalgan sozlarimizdan 1936-yilda birinchi xalq cholg'ulari orkestri tuzilgan. Cholg'ularimizdan ba'zi birlari temperatsiya qilinib (ya'ni, bir xil sozlanishga yaqinlashtirilib), katta-kichik turlari ishlab chiqildi. Bularga katta-kichik nay, katta-kichik g'ijjaklar, changlar, ruboblar, dutorlarni kiritish mumkin.

Bunday orkestr uchun O'zbekiston bastakorlari yangi asarlar ijod qilishdi, xalq kuylarini qayta ishlashdi, jahon mumtoz bastakorlarining asarlarini moslashtirishdi.

«Orkestr sinfi» darslarida quyidagi ko'nikmalarni o'zlashtirish talab etiladi:

1. Cholg'u mutaxassisligi bo'yicha olingan bilimlarni orkestr ijrochiligida qo'llash;
2. Orkestr partiyalarini o'qiy olish va o'rganish;
3. O'lchov va usul, dinamika va agogika sezgilarini tarbiyalash hamda rivojlantirish;
4. Musiqiy asar, undagi asosiy va yordamchi ovozlarni eshita bilish, guruhlar va to'liq orkestrning ijro xususiyatlarini anglash;

5. Drijor qo'l harakatlarini anglash;
6. Ansambl birligi holatini shakllantirish.

Orkestr mashg'ulotlari o'quvchining garmonik eshitish qobiliyati va musiqiy xotirasi rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda, orkestrning konsert ijrochilik amaliyoti ham katta o'quv-tarbiyaviy va amaliy ahamiyatga egadir. O'quvchilarning konsert chiqishlari kasbiy mahoratni o'stirishi bilan birga, ularga mas'uliyatni his qilish, diqqatni jamlash kabi ko'nikmalarni tarbiyalab, pirovardida o'zbek milliy cholg'ulari va ijrochilik madaniyatini targ'ibot qilishga xizmat qiladi.

Mashg'ulotlar o'quvchi garmonik eshitish qobiliyati va musiqiy xotirasi rivojlanishiga yordam beradi.

ORKESTR RAHBARINING VAZIFALARI – «Dirijyor» so'zi turli tillarda turlicha talaffuz qilinadi: Nemislar "Dirident", italyanlar "Diridente", fransuzlar "Shef orkestre", inglizlar "Konduktor" deyilar.

Har qaysi tilda ham bu so'z rahbar, boshliq, direktor ma'nosini anglatadi. Shunday qilib, dirijyor bu - orkestr jamoasining rahbaridir. Uning asosiy vazifasi – bu jamoaning hayoti faol va yaxshi tashkillashtirilgan bo'lishini nazorat qilishdan iborat. Dirijyor sozandalar musiqiy asarni uyg'unlikda ijro etishlari, ular asarni birga boshlab, birga tugatishlari, o'z cholg'ularini bir maromda chalishlari, pauzalarni vaqtida ushlab, bir maromda kuy boshlashlarini ta'minlaydi. Dirijyor sozandalar ijrosini yagona ritm va tempga moslashtirishi, ularni ijroga yo'naltirish uchun belgi berishi lozim.

Darvoqe, uzoq vaqt davomida ko'pchilik, dirijyor vazifasi faqat orkestrning yagona ritmdagi ijrosini ta'minlashdan iborat, deb tushunar edi. Aslida esa dirijyorlik kasbi juda murakkab va qiyindir. U juda katta aqliy va asabiy mehnat, doimiy jismoniy quvvat talab qiladi. Demak dirijyor mustahkam salomatlikka va chidam hamda bardoshga ega bo'lishi zarur. Uning uchun zarur bo'lgan o'zini qo'lga ola bilish xususiyati ham salomatlik va asab tizimining ahvoliga bog'liq.

Dirijyor 100 dan ortiq musiqachilar faoliyatining asosiy muvofiqlashtiruvchisidir. Uning roli qisman rejissor roliga o'xshab ketadi. Rejissor – teatrdagi sahna asarining badiiy rahbari, spektaklni tayyorlash borasidagi barcha ishlarning boshini birlashtirib turadi. Dirijyorni ham bevosita orkestrning rejissori deb qarash mumkin.

ORKESTR JOYLASHUVI – Orkestr guruhlarini to'g'ri joylashtirish rahbar – dirijyorga ijrochilik bilan doimiy aloqada bo'lish, ularni nazorat qilish, shu bilan birga, hamma ovozlarni to'liq qamrab olish imkoniyatini yaratib beradi. Xalq cholg'ulari orkestrining to'liq tarkibida kiradigan har bir cholg'ular oilasi, alohida ijodiy jamoani tashkil etishi mumkin. Bunday jamoalar bugungi kun ijrochilik amaliyotida mavjud bo'lib, ular dutor, rubob, changlar, torli-kamonli, dutor va rubob kabi jamoalardan iborat. Ushbu guruhlariga rahbarning ijodiy yondoshuvidan kelib chiqib, asar partiturasini bilan bog'liq bo'lgan hollarda boshqa oilalarning cholg'ulari ham kiritilishi mumkin.

Sahnada guruhlar joylashuvining umumiy tartibi quyidagicha: yuqori registrdagi cholg'ular (rubob prima, g'ijjak, chang, nay) rahbar – dirijyor atrofida, ya'ni undan chap va o'ng tomonlarda, shu bilan birga ro'parasida bo'lishlari lozim; o'rta va past registrdagi cholg'u guruhlar esa (qashqar va afg'on ruboblar, dutorlar, g'ijjak – al't, bas va

kontrabaslar) ikkinchi qatorda, ya'ni yuqorida aytib o'tilgan cholg'ular ortida joylashadi. Zarbli cholg'ular guruhi dirijyordan chap tomonda bo'lib, so'nggi qatorda joylashtiriladi.

Orkestrning umumiy joylashuvi dirijyor atrofida yarim doira shaklida o'rnatilgan bo'lib, tog'ri tashkil etilgan tartibli jamoa sifatida yaxshi taassurot qoldirishi lozim. 14

Shu joylashuvda chang cholg'usi markazda ya'ni dirijyorning ro'parasida joylashgan bo'lib hatto ansambl joylashuvda ham markazda joylashgan bo'ladi. Orkestrda markazda joylashuvi o'ziga yarasha ulug'vor holatda ko'rinadi.

Bu cholg'u jarangli tovushga ega bo'lib, orkestrdagi o'rni kattadir. Ko'plab kompozitorlar bu cholg'uga murojaat qila boshlaydi. Hatto o'zbek kompozitorlari yangicha izlanishlar samarasi negizida, milliy cholg'ularning tovush tarovatini simfonik orkestr tovushlari bilan muvofiqlashtirishga urinib ko'rishadi. Xususan, Abdusharif Otajonov ilk bor simfonik orkestr tarkibida chang cholg'usini yakkanavoz sifatida qo'llab ko'rish maqsadida "Chang va simfonik orkestr uchun Konsert" (1964) asarini yaratadi. Bu asar yangilik sifatida keng targ'ib qilindi va konsert dasturlaridan o'rin oldi. Mazkur "Konsert" A.Odilov (chang) va filarmoniya qoshidagi Davlat simfonik orkestri (dirijyor Z.Xaqnazarov) jo'rnavozligida radioda yozib olinib, radio to'lqinlari orqali muntazam yangrab turgan.

1965 yili Ibrohim Hamroyev chang va xalq cholg'ulari orkestri uchun uch qismli "Birinchi Konsert"ni (Konsert birinchi changchi ayol Fazilat Shukurovaga bag'ishlangan), 1970 yili "Ikkinchi Konsert"ni va 1979 yili "Uchinchi Konsert"ni yaratdi. Umuman olganda, chang va orkestr uchun "Konsertlar"ni B.Brovsin, T.Hasanov, S.Varelas va ko'plab boshqa kompozitorlar ijodida kuzatish mumkin. Chang cholg'usining orkestr jo'rnligida ijro qilinishi, uning yangicha tembr va tovush xususiyatlarini yanada kengroq namoyon qilish imkonini berdi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, yuqoridagi kompozitorlar tomonidan chang uchun yaratilgan yirik shakldagi asarlar o'z davrida ma'lum bir tajriba sifatida, birmuncha soxta ko'rinishda, xalq ohanglaridan uzoqroq bo'lgan g'arbona usullarda yaratilgan. Shu boisdan, bugungi kunda ular deyarli ijro etilmay chang ijro dasturlaridan butunlay chiqib ulgurgan. Shunday bo'lishiga qaramay bu urinishlar mavjud kamchiliklar ustida izlanishga va kelgusida milliy cholg'ularimiz uchun mukammal asarlar yaratishga zamin bo'lib xizmat qildi.

Garchand chang cholg'usi tabiatan injiq va murakkab bo'lishiga qaramay, u moslashuvchan va bo'yso'nuvchan cholg'udir. Tabiiyki buning negizida uning keng tovush ko'lami, jozibador tarovati va rang-barang ijro uslublari muhim ahamiyat kasb etadi. Keyingi davrlarda kompozitorlar chang imkoniyatlarini noan'anaviy, g'arbona ijro yo'nalishida ham sinab ko'radilar. Xususan, Toshkent shahriga Moskvalik Mark Pekarskiyning "Urma cholg'ular ansambli" konsert dasturi bilan tashrif buyurganida, ansambl rahbari o'z jamoasiga o'zbek urma cholg'ularidan birini qo'shish xohishini bildiradi. M.Pekarskiy bilan uchrashuv jarayonida O'zbekiston kompozitori D.Yanov-Yanovskiy hech ikkilanmasdan urma-torli chang cholg'usini tavsiya etgan.

Orkestr musiqasi insoniyat madaniyati va san'ati rivojida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijodiy yo'nalishlardan biridir. Ushbu maqola orqali orkestrlarning turli xil turlari, ularning tarkibi va ijrochilik madaniyati chuqur yoritildi.

Simfonik, duxovoy, torli va estrada orkestrlari bilan bir qatorda o'zbek xalq cholg'ulari orkestrining boy merosi va milliy o'ziga xosligi ham tahlil qilindi. Milliy cholg'ularning orkestr tarkibidagi roli va ular orqali milliy musiqani targ'ib qilishning ahamiyati, shuningdek, dirijyorlik san'atining orkestr ijrochiligidagi o'rni alohida ta'kidlandi.

Ushbu tadqiqot orkestrlarning nafaqat ijodiy, balki tarbiyaviy jihatlari haqida ham tasavvur beradi. Ularning ijrochilik madaniyatini rivojlantirish, yoshlarga musiqiy ta'lim berish va milliy musiqani merosini targ'ib qilishdagi o'rni beqiyosdir.

Shunday qilib, orkestr san'ati zamonaviy va milliy musiqiy madaniyatni uyg'unlashtirgan holda, jamiyatda estetik tarbiya va san'atni rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Darvesh Ali Changiy. Risolai musiqiy. O'zR FA ShI-1, inventar № 468
2. Hamidov H. "Markaziy Osiyo xalqlarining ilk o'rta asrlar san'ati tarixidan" Toshkent.: "Yozuvchi" 1995 y.
3. A.Petrosyans.A. Odilov."Chang darsligi" -T.: 1976 y.
4. A. Liviyev "O'zbek milliy cholg'usozlik tarixi" -T.: 2002 y.
5. Qodir o'g'li, M. S. (2024). MUSIQA SAVODXONLIGINING TARBIYAVIY AHAMIYATI. *Научный Фокус*, 2(20), 714-718.
6. Qodir o'g'li, M. S. (2024). MUSIQA SAVODXONLIGINING BOLALAR RIVOJLANISHIDAGI PEDAGOGIK ASOSLARI. *WORLD OF SCIENCE*, 7(12), 234-237.
7. Qodir o'g'li, M. S. (2024). INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING MUSIQA TA'LIMIDA QO'LLANILISHI. *SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH*, 3(28), 68-71.
8. Ibrohimov, A., & Maxkamjanov, S. (2023, February). OPERA SAN'ATINING VOKAL JANIRI. In *Международная конференция академических наук* (Vol. 2, No. 2, pp. 175-177).
9. Maxkamjanov, S., & Ibrohimov, A. (2023). NAY CHOLG'USI IJROCHILIK SAN'ATI TARIXI VA RIVOJLANISH JARAYONI. *Инновационные исследования в науке*, 2(2), 37-40.